SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - avgust 428-7-93-Q/22 Bulung’ur tuman hokimligi

Bulung‘ur tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida Guliston mahallasiga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘ligini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat ransport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Hududdagi aholining murojaati va tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2022-yil 15-avgustdagi 43/3510-sonli xati asos uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman markazi hududidagi “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘ini O‘zbekiston ko‘chasida maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joylari yaqinida O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklar, shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (S.Bozorov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Mamarasulov), mahalla fuqarolar yig‘ini raisi bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Mazkur qaror “Bulung‘ur hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.


6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Elmuratov va ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Otamuradov zimmalariga yuklatilsin.


Tuman hokimi **S.Astonov**

Bulung’ur tuman hokimining
2022 yil 30 avgustdagi
428-7-93-Q/22-son qaroriga
1-ilova

HOKIM QARORI

Bulung‘ur tuman markazi hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida **“Guliston”** mahallasiga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida





https://regulation.gov.uz/oz/d/65915